



MAXSUS TAKLIF:

““MINOR KSM”NING O‘YIN AVTOMATLARI ZALIGA KUPON UCHUN SERTIFIKAT”

2023-yil “13” aprel

1. “O‘yin avtomatlari zaliga Kupon uchun sertifikat” Maxsus taklifi “CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION” MCHJ – “A-Pay” Elektron pul Tizimi Operatori tomonidan Aksiya Hamkori – Minor KSM (Minor New Market) ko‘magida tashkil etildi.
2. Maxsus taklif o‘tkaziladigan hudud: Buxoro shahri.
3. Amal qilish muddati: 2023-yil “14” apreldan 2023-yil “16” aprelgacha. Sertifikatlar soni cheklangan.
4. Maxsus taklifdan faqat “A-Pay” Elektron pul Tizimida identifikatsiyadan o‘tgan mijozlar foydalanishi mumkin.
5. Mijozlarni Maxsus taklif haqida xabardor qilish, tegishli ma’lumotlarni Tashkilotchining <https://www.a-pay.uz> veb-saytida va (yoki) “A-Pay” mobil ilovasida joylashtirish orqali amalga oshiriladi.
6. Maxsus taklif shartlari: identifikatsiyadan o‘tgan mijoz A-Pay Peshtaxtasida 10 000 APS evaziga “O‘yin avtomatlari zaliga Kupon” uchun Sertifikat olish imkoniga ega. “O‘yin avtomatlari zaliga Kupon” uchun Sertifikatni faollashtirish uchun foydalanuvchi “Kidszone” o‘yin maydonchasida 1 soat o‘tkazish uchun pul to‘lashi kerak bo‘ladi. “O‘yin avtomatlari zaliga Kupon” uchun Sertifikat Buxoro shahrida joylashgan Minor KSM savdo nuqtasida faqat Maxsus taklif amal qilishi davrida faollashtirilishi mumkin.
 - Manzil: Buxoro sh., Islom Karimov ko‘chasi. Mo‘ljal: bolalar kasalxonasi. Minor ko‘ngilochar savdo majmuasi, 3-qavat.

Bir nafar Mijoz Maxsus taklifning amal qilish muddati davomida “A-Pay” Peshtaxtasidan bir dona “O‘yin avtomatlari zaliga Kupon” uchun sertifikatni olishi mumkin. Maxsus taklifning amal qilish muddati yakunlanganidan so‘ng faollashtirilmagan “O‘yin avtomatlari zaliga Kupon” uchun Sertifikatlar haqiqiy hisoblanmaydi.

7. Tashkilotchiga Mijozni Maxsus taklif ishtirokchilari ro‘yxatidan chetlashtirilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan faktlar haqida ma’lum bo‘lgan taqdirda (“APS Bonus” Bonus dasturi Shartlariga rioya qilmaslik holatlari, “A-Pay” Elektron pul Tizimida aksiyalar o‘tkazish qoidalarini buzish, firibgarlik, g‘irromchilik, o‘zi haqida bila turib yolg‘on ma’lumotlarni taqdim etish va h.k.), bunday shaxslar Maxsus taklifdan foydalanish huquqidan mahrum etiladi.
8. Tashkilotchi o‘z xohishiga ko‘ra, bir tomonlama tartibda, istalgan vaqtda oldindan ogohlantirmasdan va sabablarini tushuntirmasdan, Maxsus taklifni muddatidan oldin bekor qilish yoki vaqtincha



to‘xtatib turish, shuningdek, har qanday o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Maxsus taklifni muddatidan oldin bekor qilish, to‘xtatib turish, o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish da‘vo uchun asos bo‘la olmaydi.

9. Maxsus taklif muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda Tashkilotchi tegishli ma‘lumotlarni o‘zining <https://www.a-pay.uz> manzilidagi rasmiy veb-sayti va (yoki) mobil ilovasida joylashtirish orqali ommani xabardor qilish majburiyatini oladi.
10. Tashkilotchi “O‘yin avtomatlari zaliga Kupon” uchun sertifikat Maxsus taklifini noto‘g‘ri talqin qilish natijasida kelib chiqqan har qanday anglashilmovchilik, tushunmovchilik, da‘vo yoki zarar uchun javobgar bo‘lmaydi.
11. Agar Maxsus taklifga doir biron-bir savol, tushunmovchilik yoki nizoli holatlar yuzaga kelsa, Mijoz Tashkilotchi bilan bog‘lanish orqali ularga aniqlik kiritish va hal qilish uchun barcha choralarni ko‘rishi shart.
12. Tashkilotchining majburiyatlarini bajarishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadigan fors-major holatlar, shu jumladan suv toshqini, yong‘inlar, ish tashlashlar, zilzilalar, ommaviy epidemiyalar, davlat yoki huquqni muhofaza qilish organlarining buyruqlari va Tashkilotchiga bog‘liq bo‘lmagan boshqa obyektiv sabablar yoki boshqa tabiiy omillar yuzaga kelgan taqdirda Tashkilotchi Mijozlar oldidagi o‘z majburiyatlarini bajarishdan ozod etiladi.
13. “O‘yin avtomatlari zaliga Kupon uchun sertifikat” uchun Maxsus taklifda nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish fakti Mijozning o‘z shaxsiy ma‘lumotlarini qayta ishlanishi va Tashkilotchidan elektron pochta (shaxsiy kabinet, telefon, shuningdek ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar) orqali reklama va boshqa xabarlarni qabul qilishga roziligini bildiradi. Har bir Mijoz o‘zi bilan tushirilgan fotosurati, video rolik, Tashkilotchi va uning o‘rtasida bo‘lgan intervyuni Tashkilotchining veb-saytida va (yoki) mobil ilovasida, reklama materiallarida, ijtimoiy tarmoq sahifalarida va hokazolarda joylashtirish va e‘lon qilishga roziligini beradi. Tashkilotchi yuqorida qayd etilgan materiallardan cheklanmagan muddat davomida foydalanishi mumkin va Mijoz buning uchun hech qanday haq talab qilmaydi.

